

PEDAGOGIK JARAYONDA TA'LIM VA TARBIYANING UZVIY BOG'LIQLIGI

Ganiyeva Malikaxon

*Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti ingliz tili amaliy
kursi kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.*

Rafiqova Nilufar Umidjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti 3-bosqich talabasi
e-mail rafiqovanilufar16@gmail.com
Telefon raqam: +998944486525*

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik jarayonning ikki asosiy tarkibiy qismi – ta'lim va tarbiyaning o'zaro uzviy bog'liqligi hamda ularning shaxs kamolotidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida o'qitish va tarbiyalash jarayonlarini uyg'un holda tashkil etish, o'qituvchining bu jarayondagi yetakchi roli hamda ta'lim-tarbiya birligini ta'minlovchi samarali pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolada ushbu masalaga oid ilmiy-nazariy qarashlar bilan bir qatorda, amaliy tavsiyalar ham keltirilgan.

Annotation: This article analyzes the interrelation between the two main components of the pedagogical process – education and upbringing, and their role in the development of an individual's personality. It also focuses on the integration of teaching and upbringing in modern education, the key role of the teacher in this process, and effective pedagogical approaches that ensure the unity of education and upbringing. In addition to theoretical discussions, the article presents practical recommendations on how to achieve harmony between these two essential aspects of pedagogy.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь между двумя основными компонентами педагогического процесса – образованием и воспитанием, а также их роль в развитии личности человека. Особое внимание уделяется интеграции обучения и воспитания в современном образовании, ключевой роли учителя в этом процессе и эффективным педагогическим подходам, обеспечивающим единство образования и воспитания. Помимо теоретических обсуждений, в статье представлены практические рекомендации по достижению гармонии между этими двумя важнейшими аспектами педагогики.

KIRISH

Ta'lim va tarbiya – pedagogika fanining ajralmas, o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan ikki asosiy yo'nalishidir. Har qanday o'quv jarayonida bilim berish bilan bir qatorda, o'quvchining ma'naviy dunyosini shakllantirish, unga axloqiy qadriyatlarni singdirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bilimli, lekin tarbiasiz inson jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'lishi mumkin. Shu bois pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyani bir butun tizim sifatida olib borish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

ASOSIY QISM

Ta'lim – bu bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayoni bo'lsa, tarbiya shaxsning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishga

qaratilgan uzluksiz jarayondir. Ularning maqsadi yagona: barkamol insonni voyaga yetkazish. Shu bois, ta'lim jarayonida berilayotgan har bir bilim va ko'nikma tarbiyaviy maqsadga ham xizmat qilishi zarur. Masalan, tarix darsida o'quvchilarga faqat faktlarni emas, balki vatanparvarlik, fidoyilik, halollik kabi fazilatlarni ham singdirish muhim hisoblanadi. Ona tili va adabiyot darslarida esa nafaqat so'z turkumlari, ularning gapdagi o'rni, balki muomala madaniyati, kattalar bilan so'zlashish odobini o'rgatish zarur.

Tarbiya va ta'limning o'zaro bog'liqligi

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'limsiz tarbiya, tarbiyasiz ta'lim samarali bo'la olmaydi. Agar o'qituvchi faqat nazariy bilim berishga e'tibor bersa, lekin o'quvchining ma'naviy dunyosiga ta'sir qilmasa, bu ta'lim to'liq natija bermaydi. Shuningdek, faqat tarbiyaga urg'u berilib, bilim berish chetga surib qo'yilsa, shaxsning intellektual rivoji to'xtab qoladi. Shu bois bu ikki jarayon bir-birini to'ldiruvchi hisoblanib, uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi kerak.

O'qituvchining roli va shaxsiy namunasi

An'anaviy o'qitish tizimida o'qituvchi pedagogik jarayonning markazida turadi. Uning har bir so'zi, harakati, muomala madaniyati o'quvchilar uchun ibratdir. Ayniqsa, bizning mentalitetimizda ustoz – otangdan ulug' deya e'tirof etiladi. O'quvchilarning nazdida ustoz – mukammal shaxs. U o'zida bilimlilik, axloqlilik, muloyimlik, mehribonlik hislatlarini mujassam etadi. Shuning uchun o'qituvchi o'z faoliyatida faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi, yo'l ko'rsatuvchi, shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi inson sifatida faoliyat yuritishi zarur. "Yaxshi o'qituvchi – bu avvalo yaxshi tarbiyachi" degan fikr bejiz emas.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ta'lim va tarbiya uyg'unligi

Bugungi kunda interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim kabi yondashuvlar o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash, mas'uliyat kabi fazilatlarini shakllantirib rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa ta'lim jarayonida tarbiyaning tabiiy tarzda amalga oshishini ta'minlaydi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni to'g'ri qo'llash orqali o'quvchilarda intizom, mustaqillik va halollikni shakllantirish mumkin.

XULOSA

Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralgan holda samarali natija berolmaydi. Ular bir maqsad – barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qiladi. Har bir o'qituvchi dars jarayonida nafaqat bilim berish, balki o'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga ham e'tibor qaratmog'i lozim. Shu tarzda pedagogik jarayonning ta'limiy va tarbiyaviy jihatlari o'zaro uyg'unlashganda, jamiyat aqliy va ma'naviy jihatdan rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Zunnunov A., Hasanboeva O. Pedagogika. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2016.

3. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat asoslari. — Toshkent, 2019.
4. Rasulov R. Ta'lim va tarbiya nazariyasi. — Toshkent, 2021.
5. Hasanov B. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. — Toshkent, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil